

## **LABORATORIYA TADQIQOTLARINING ZAMONAVIY NOMENKLATURASINI O‘RGANISH**

**Nishonov A.A., Nuriddinova N.F.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Klinik laborator diagnostikasining rivojlanishi uchun laboratoriya tadqiqotlarini qo‘llashning ilmiy asoslilikiga va belgilangan vazifalarga to‘g‘ri keladigan ehtimolli talqin vositalaridan foydalanish zarur. Laboratoriya tadqiqotining klinik ko‘rsatmalarga kiritilishi, ushbu tadqiqotning bemorga tanlanishi va tayinlanishi kasallikda laboratoriya ko‘rsatkichining ko‘payishi yoki kamayishi to‘g‘risidagi fikrlar pozitsiyasidan emas, balki laborator diagnostika biomarkeri sifatida ilmiy jihatdan isbotlangan ma‘lumotlar asosida amalga oshirilishi kerak. Shu qatorida usul va reagentlarning sezgirligi, aniqligi, prognostik qiymatigi kai ko‘rsatkichlar ham ahamiyatli.

Hozirgi kunda ilmiy va laborator tadqiqotlarini amalga oshirish va baholashga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bormoqda. Laboratoriya usullaridan foydalanish natijasida mustahkam o‘rnatilgan an’anaviy tibbiyot nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish bilan ularning roli ortmoqda. Laboratoriya tadqiqotlarining zamonaviy nomenklaturasini o‘rganish, laboratoriya diagnostikasining oldindan analitik bosqichini ta‘minlashga qo‘yiladigan me‘yoriy talablar, sifat menejmentini ta‘minlash orqali klinika va laboratoriya o‘rtasida samarali dialogni shakllantirishning xalqaro tamoyillarini ishlab chiqarish laboratoriya sohasini yana jadallashtirish imkonini beradi.

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini laboratoriya diagnostikasi algoritmlari bilan tanishish, qandli diabet kasalliklarini davolash kursini nazorat qilish, immun tizimi buzilishlarini laborator diagnostika qilish imkoniyatlari, onkologik kasalliklar, buyrak kasalliklari, oshqozon-ichak trakti, ichak, endokrin tizimi, qon tizimi, tizimli

kasalliklar, allergik kasalliklar terapiyasini laborator nazorat qilishni malakali amalga oshirish bilan birga, klinik muammolarni hal qilishda ularning diagnostik axborotini ta'minlash uchun laboratoriya texnologiyalarining analitik xususiyatlari bilan tanishish muhim ahamiyatga egadur.

**Xulosa.** Tadqiqot usullarining analitik xususiyatlarini hisobga olgan holda diagnostik laboratoriyalar algoritmi qurilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bu esa klinik laborator tadqiqotlariga texnologik imkoniyatlar oshishiga yordam beradi.

### **Adaviyotlar. (Literature)**

1. Abdiyatov Sh.Z. Kurbonova Z.Ch. Nanotexnologiya bilan davolash imkoniyatlari // Tibbiy ta'lim transformatsiyasi: megatrendlar. – Toshkent, 2021. – B. 164-168.
2. Babadjanova S.A. Kurbonova Z.Ch. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.
3. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

